

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH
RESPUBLIKA ILMIY-METODIK
MARKAZI**

100011, Toshkent shahar, Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 30-uy
veb-sayt: www.trm.uz, e-pochta: trm@exat.uz



**REPUBLICAN SCIENTIFIC AND
METHODOLOGICAL CENTER FOR
THE DEVELOPMENT OF EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

30, Navoi street, Shaykhontohur district,
Tashkent, 100011
web-site: www.trm.uz, e-mail: trm@exat.uz

2025-y. “30” iyun

№ 01-02/5-364

**O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Ijtimoiy himoya milliy
agentligiga**

**O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirligiga**

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlash va ular uchun teng imkoniyatlar yaratish, ota-onalar va pedagog kadrlar o‘rtasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim muassasalari, jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘rtasida tajriba almashish jarayonini tashkil etish maqsadida **“Inklyuziv ta’limni rivojlantirish maqsadida ta’lim muassasalari o‘rtasida tajriba almashishni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”** qo‘shma qaror ishlab chiqildi.

Ma’lumot uchun: Mazkur qo‘shma qaror 2025-yilning 23-iyun kuni Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlandi.

Sizdan qo‘shma qarorni amaliyotga tatbiq etish maqsadida hududiy boshqarma hamda mas’ul tashkilotlaringizga yuborishda amaliy yordam berishingizni so‘raymiz.

Direktor v.v.b.



Y.Risyukova

Ijr.: G.Alimova
Tel.: (55) 519-02-02 (1025)



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI

**IJTIMOY
HIMOYA
MILLIY
AGENTLIGI**

8 iyul 2025 yil.

06/06-33/3420-son

**Ijtimoiy himoya milliy agentligining
Qoraqalpog'iston Respublikasi,
viloyatlar va Toshkent shahar
boshqarmalari**

nusxasi ma'lumot uchun:

*O'zbekiston Respublikasi
Ta'limni rivojlantirish respublika
ilmiy-metodik markaziga*

O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 23-iyundagi "Inklyuziv ta'limni rivojlantirish maqsadida ta'lim muassasalari o'rtasida tajriba almashishni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi (1-Q/Q, 4-qq va 35-q/q-son) qarori (*ilovada*) rahbarlik va ijro uchun yuborilmoqda.

Shu munosabat bilan, Sizdan:

mazkur qarorni amaliyotga tatbiq etish uchun tizim tashkilotlari va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga yetkazishingizni;

qaror bilan tasdiqlangan yo'riqnoma asosida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlash va ular uchun teng imkoniyatlar yaratish maqsadida inklyuziv ta'limni rivojlantirish, ota-onalar va pedagog kadrlar o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasalari, jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari va umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'rtasida tajriba almashish jarayonlarini tashkil etib borishingizni so'raymiz.

Direktor o'rinbosari



U.Sharifxodjayev

Ijrochi: A.Baxodirov
Tel.: 93 076-77-67

O'zbekiston Respublikasi ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi

K/R: 191 VI

2025-yil 8-iyul



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100011, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 2a-uy Tel.: (+998) 71 241-01-86; (+998) 55 503-74-00
web-site: www.uzedu.uz, e-mail: uzedu@exat.uz

2025-yil "9"- iyul

04-39-3090-son

Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga

Nusxasi: O'zbekiston Respublikasi
Ta'limni rivojlantirish respublika
ilmiy-metodik markaziga
(ma'lumot uchun)

Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan 2025-yil 23-iyunda tasdiqlangan **"Inklyuziv ta'limni rivojlantirish maqsadida ta'lim muassasalari o'rtasida tajriba almashishni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"**gi qo'shma qaror (1-Q/Q-son, 4-qq-son, 35-q/q-son) Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy boshqarmalari bilan hamkorlikda ijrosini ta'minlash uchun yuborilmoqda.

Ilova: __ varaq.

Vazir o'rinbosari



F.Boqiyev

Ijrochi: N.Tog'ayev
telefon: (55) 503-74-00 (4091)

O'zbekiston Respublikasi ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik
markazi

K/R: 194 VI

2025-yil 10 -iyul





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH
RESPUBLIKA ILMIY-METODIK MARKAZI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
IJTIMOIY HIMOYA MILLIY AGENTLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA
VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGINING
QARORI**

Inklyuziv ta’limni rivojlantirish maqsadida ta’lim muassasalari o’rtasida tajriba almashishni amalga oshirish tartibi to’g’risidagi yo’riqnomani tasdiqlash haqida

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar uchun inklyuziv ta’limni takomillashtirish, jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo’lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari bilan maktabgacha va umumiy o’rta ta’lim muassasalari (keyingi o’rinlarda – ta’lim muassasalari) o’rtasida tajriba almashish jarayonini samarali tashkil etish maqsadida Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi **qaror qiladi:**

1. Inklyuziv ta’limni rivojlantirish maqsadida ta’lim muassasalari o’rtasida tajriba almashishni amalga oshirish tartibi to’g’risidagi yo’riqnoma ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qaror imzolangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**Ta’limni rivojlantirish respublika
ilmiy-metodik markazi direktori
vazifasini bajaruvchi**



Y.Risyukova

Toshkent sh.,
2025-yil 23-iyun,
1-Q/9 -son

**O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy
himoza milliy agentligi direktori**



M.Olloyorov

Toshkent sh.,
2025-yil 23-iyun,
4-Q/8 -son

**Maktabgacha va maktab ta’limi
vaziri**



X.Umarova

Toshkent sh.,
2025-yil 23-iyun,
35-Q/8 -son

O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik markazi, O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya
milliy agentligi hamda O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining
2025-yil 23-iyundagi
1-Q/Q, 4-qq va 35-q/q-sonli qaroriga
ILOVA

**Inklyuziv ta'limni rivojlantirish maqsadida ta'lim muassasalari o'rtasida tajriba
almashishni amalga oshirish tartibi to'g'risida
YO'RIQNOMA**

Ushbu Yo'riqnoma alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlash va ular uchun teng imkoniyatlar yaratish maqsadida inklyuziv ta'limni rivojlantirish, ota-onalar va pedagog kadrlar o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasalari, jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalari va umumiy o'rta ta'lim muassasalari (keyingi o'rinlarda – ta'lim muassasalari) o'rtasida tajriba almashish jarayonini tashkil etish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ta'lim muassasalari o'rtasidagi tajriba almashish jarayoni beg'araz amalga oshiriladi hamda inklyuziv ta'lim joriy etilgan yoki boshlang'ich tayanch korreksion sinfi mavjud bo'lgan ta'lim muassasalaridagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olishlariga shart-sharoitlar yaratishga, shuningdek alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning psixofiziologik rivojlanishi, korreksiyalash va sensorli integratsiya funksiyalarini rivojlantirish va tuzatish ishlarini takomillashtirishga qaratiladi.

2. Ushbu Yo'riqnomada quyidagi asosiy tushunchalar qo'llanadi:

boshlang'ich tayanch korreksion sinfi – alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun umumiy o'rta ta'lim muassasasida alohida tashkil etiladigan boshlang'ich sinf;

inklyuziv guruh – maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar hamda rivojlanishida nuqsonlari bo'lmagan sog'lom bolalarning birgalikda tarbiyalanishi uchun tashkil etilgan guruh;

inklyuziv ta'lim – alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim muassasalarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlagan holda beriladigan ta'lim;

inklyuziv ta'lim sinfi – umumiy o'rta ta'lim muassasasida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning boshqa (sog'lom) bolalar bilan teng huquqli va birgalikda ta'lim olishlari shaklida tashkil etilgan sinf;

maxsus pedagog – inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarida hamda maxsus yordam ko'rsatish xonalarida o'quvchilar bilan korreksion-pedagogik ishlarni olib boruvchi va muvofiqlashtiruvchi asosiy mutaxassis;

individual ta'lim dasturi – inklyuziv ta'limga qamrab olingan har bir alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalarning shaxsiy xususiyati hamda qiziqishidan kelib chiqqan holda uzoq va qisqa muddatli, maxsus pedagog tomonidan tuziladigan, umumiy o'rta ta'lim muassasasi direktori tomonidan tasdiqlanadigan hujjat.

3. Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining amaliy ish tajribalarini o'rganish orqali inklyuziv ta'lim yoki boshlang'ich tayanch korreksion sinfi tashkil etilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalari alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlash faoliyatini takomillashtirib boradi.

2-bob. Ta'lim muassasalari o'rtasida tajriba almashishning maqsadi va vazifalari

4. Ta'lim muassasalari o'rtasida tajriba almashishning maqsadi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratish, ta'lim muassasalariga tez va oson moslashishini ta'minlash, ular uchun to'siqsiz muloqot muhitini yaratish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning qiyinchiliklarsiz ijtimoiylashuviga ko'maklashish, inklyuziv ta'lim dasturlarini rivojlantirish va ta'lim muassasalari o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni hamda yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishdan iborat.

5. Quyidagilar ta'lim muassasalari o'rtasida tajriba almashishning vazifalari hisoblanadi:
alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun barqaror inklyuziv ta'lim muhitini yaratish;
ta'lim muassasalari o'rtasida tajriba almashish jarayonlarini tashkil etish;
inklyuziv ta'lim sohasida zamonaviy metodikalar va texnologiyalarni joriy qilish;
ota-onalar, pedagog kadrlar va ta'lim muassasalari o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlash;
ta'lim jarayonidagi to'siqlarni aniqlash va bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish;
pedagog kadrlar malakasini oshirish va ularni inklyuziv ta'lim uchun tayyorlash;
innovatsion yondashuvlarni tatbiq qilish orqali inklyuziv ta'lim sifatini oshirish;
inklyuziv guruhlarini tashkil etish orqali jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar hamda boshqa (sog'lom) bolalar uchun teng ta'lim va tarbiya sharoitlarini yaratish, ularning jamiyatga moslashuvini ta'minlash, ijtimoiy va ta'limiy imkoniyatlarini kengaytirish.

3-bob. Ta'lim muassasalari o'rtasida tajriba almashish

6. Ta'lim muassasalari o'rtasida tajriba almashish:
maktabgacha ta'lim tashkilotlari, xususan inklyuziv ta'lim guruhlar tashkil etilgan davlat va nodavlat, ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan, qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasida;
inklyuziv ta'lim guruhlar tashkil etilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda inklyuziv ta'lim yoki boshlang'ich tayanch korreksion sinf tashkil etilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'rtasida;
jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari o'rtasida;

jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari hamda inklyuziv ta'lim yoki boshlang'ich tayanch korreksion sinf tashkil etilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'rtasida;

inklyuziv ta'lim yoki boshlang'ich tayanch korreksion sinf tashkil etilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'rtasida;

inklyuziv ta'lim yoki boshlang'ich tayanch korreksion sinf tashkil etilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalari hamda maxsus pedagogika yo'nalishi mavjud oliy ta'lim muassasalari o'rtasida tashkil qilinadi.

7. Pedagogika yo'nalishi mavjud oliy ta'lim muassasalarining maxsus pedagogika bakalavriat yuqori kurs talabalari o'z hududidagi inklyuziv ta'lim yoki boshlang'ich tayanch korreksion sinf tashkil qilingan umumiy o'rta ta'lim muassasalariga tashrif buyurib, bevosita ta'lim berish amaliyoti bilan tanishib chiqishlari shart.

8. Pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalari inklyuziv ta'lim yoki boshlang'ich tayanch korreksion sinf tashkil qilingan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida:

inklyuziv sinf o'qituvchilarning boshqa (sog'lom) va alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan olib borilayotgan dars mashg'ulot jarayonlari bilan tanishish;

maxsus pedagoglarning korreksion-pedagogik ishlarni kuzatish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni umumiy o'rta ta'lim muassasalariga moslashuvini kuzatish va tahlil qilish;

boshqa (sog'lom) bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga munosabatini o'rganish;

umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi psixologik muhitni kuzatish;

oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari tomonidan berilgan nazariy bilimlarning amaliyot bilan bog'langanlik darajasini solishtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

9. Tajriba almashish davomida oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'lim turi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilarga inklyuziv ta'lim sinfi tashkil etilgan ta'lim muassasalarida tajriba-sinov ishlarini olib borish, olib borilgan barcha tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish imkoniyati yaratiladi.

10. Ta'lim muassasalari o'rtasida tajriba almashish Qoraqalpog'iston Respublikasi, tuman (shahar) va viloyatlar hamda respublika miqyosida tashkil etiladi.

11. Tajriba almashish:

tuman miqyosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tasarrufidagi "Inson" ijtimoiy xizmat ko'rsatish markazlari hamda tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari tomonidan kalendar yilning har choragida ta'lim muassasalaridan birida;

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar miqyosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining hududiy boshqarmalari tomonidan bir yilda ikki marta pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlarida;

respublika miqyosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan bir yilda bir marta Ijtimoiy himoya tizimi xodimlarining malakasini oshirish markazi, Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning

malakasini oshirish instituti yoki Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy institutida tashkil qilinadi.

12. Tajriba almashish jarayonlari ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar roziligi bilan ta'lim muassasalarining har yili tasdiqlanadigan metodik ishlar rejasiga kiritiladi va tasdiqlangan muddatlarda o'tkaziladi.

13. Tajriba almashishda ta'lim muassasalari rahbarlari, pedagog kadrlar, uslubchilar, psixologlar, maxsus pedagoglar (defektologlar) hamda boshqa mutaxassislar ishtirok etadi.

14. Tajriba almashish oflayn shaklda quyidagi ko'rinishlarda amalga oshiriladi:

muhokama qilinadigan mavzularni belgilab olish;

ochiq dars, seminar-trening, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

ilg'or pedagogik tajribalarni ko'rsatish va muhokama qilish;

innovatsion metodik vositalarni tatbiq etish;

samarali deb topilgan tajribalarni umumlashtirish va keng jamoatchilikka ish faoliyatida qo'llash uchun tavsiya etish.

15. Bir kunga mo'ljallangan tajriba almashish jarayoni davomiyligi 1,5–2 soatdan iborat bo'lib, taqdimotlar soni uchtdan oshmasligi lozim. Tadbirlar davom etadigan kunning soni o'zaro kelishilgan holda belgilanadi.

16. Tajriba almashish natijasida maxsus ta'lim muassasalarining faoliyati, o'ziga xos tajribalari, ko'ngillilar faoliyati va boshqa muhim jihatlari namoyon etiladi.

Tajriba almashish davomida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari pedagog kadrlari inklyuziv ta'lim tashkil etilgan ta'lim muassasalari maxsus pedagoglariga yo'l-yo'riq ko'rsatishi, tajribasi bilan o'rtoqlashishi, maslahatlar berishi, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini qo'llab-quvvatlashi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni boshqa (sog'lom) bolalar bilan birga o'qishiga doir nozik jihatlarni tushuntirishi, ehtiyojdan kelib chiqib kerakli ta'lim yondashuvlarini qo'llashga yo'naltirishi, amaliy ish tajribasi bilan o'rtoqlashishi lozim.

17. Ta'lim muassasalari pedagog kadrlar tomonidan tajriba almashish jarayonida bir qator holatlarga katta ahamiyat berilishi zarur. Xususan:

dars mashg'ulotlari paytida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga dars mashg'ulotlari jarayonida ularning xususiyatlaridan kelib chiqib yondashish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning dars mashg'ulotlari jarayonida kuzatilgan diqqat tarqoqligini oldini olish;

dars jarayonida topshiriqlarni bajarishda ayniqsa yozma ish va test sinovlarida ko'proq vaqt ajratilishi, agar matn uchun savollar bo'lsa, faqat uchtagacha savollarni muhokama qilish;

bolalarga murojaat qilganda (savol, topshiriq berilganda) sodda va qisqa so'zlardan foydalanish;

vazifa qisqa, aniq, bitta harakatni ifodalaydigan, bir necha bosqichlardan iborat bo'lishi;

vazifani shakllantirishda bolaning ham ishtirokini ta'minlash;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ishni nihoyasiga yetkazish imkoniyatini yaratib berish lozim.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining hududiy boshqarmalari, Ijtimoiy himoya tizimi xodimlarining malakasini oshirish markazi, Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti hamda Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va

mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tajriba almashish jarayonlari natijasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markaziga har yili bir marta hisobot berib boradi.

19. Tajriba almashish natijasida:

maxsus ta'lim muassasalari ish tajribalari umumiy ta'lim tomonidan o'zlashtiriladi;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar va ularning ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar qo'llab-quvvatlanadi;

ta'lim ishtirokchilari uchun o'zaro tajriba almashish maydoni shakllantiriladi;

maxsus pedagoglarning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlash ko'nikma va malakalari oshiriladi;

o'quv materiallari hamda yordamchi texnologiyalardan unumli foydalanish o'rgatiladi;

individual ta'lim dasturlarini yaratish va uni yuritish yuzasidan tushunchalar beriladi;

boshqa (sog'lom) bolalarda o'ziga o'xshamagan bolalar bilan muloqotda bo'lish, birgalikda ishlash, o'z tajribalarini o'rgatish, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, o'zaro hurmat kabi tuyg'ular shakllantiriladi.

4-bob. Yakuniy qoidalar

20. Ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlik almashinuvini rivojlantirish asosida pedagog kadrlar ish tajribasini oshirishga erishiladi.

Pedagog kadrlar o'rtasidagi tajriba almashish maktabgacha ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan olib borilgan korreksion mashg'ulotlar va yondashuvlarning bevosita umumiy o'rta ta'lim muassasalarida davom ettirilishi uchun juda muhim hisoblanadi. Bunda ta'lim turlari o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlash, bolaning umumiy o'rta ta'lim muhitiga tezroq moslashib ketishiga katta ahamiyat beriladi.

21. Ta'lim muassasalari pedagog kadrlari o'rtasidagi tajriba almashish jarayonlari nafaqat ish rejalari va rasmiy tadbirlar doirasida, balki darsdan tashqari har qanday vaqtda ularning xohishiga ko'ra davom ettirilishi mumkin.

22. Uzoq masofali ta'lim tashkilotlari tajriba almashinuvi jarayonida xizmat safari bilan bog'liq barcha xarajatlar xodimning asosiy ish joyidan qoplab beriladi.